IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

MULKCHILIKNING TURLI SHAKLLARI VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI

Xaydarova Shoira Nishanbayevna

Toshkent davlat agrar universiteti tyutor

Toshkent viloyati Qibray tumani

Iqtisodiyot va menejment

Annotatsiya

Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil bo‘lishini talab qiladi, chunki tovar muayyan mulk obyekti bo‘lgandagina oldi-sotdi qilinadi. Ushbu maqolada mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar

mulkchilik, investisiya, davlat mulki, munisipal tuzilmalar, kooperativlar, bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti, madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag‘lari, oltin zaxirasi, valyuta fondi.

0‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan 0‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi», deb ta’kidlanadi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida bu mulk o‘z ichiga davlat mulkidan tashqari, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va matlubot sohalaridagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo‘jaligi va shaxsiy tomorqa xo‘jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatkashlaming shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi. Shu sababli, « 0‘zbekiston Respublikasining mulkchilik to‘g‘risida»gi qonunida turli-tuman mulklar quyidagi mulk shakllariga kiritiladi: davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk

Mulkchilik turli shakllarining mavjud bo‘lishi va ularning iqtisodiy mezoni, awalo, ishlab chiqaruvchi kuchlaminp rivojlanishi va ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasi bilan bog‘liq. Shu bilan birga mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati, ijtimoiy mehnat taqsimoti va tashkiliyiqtisodiy munosabatlarining etuklik darajasi bilan mos kelishi zarur.

Davlat mulki - mulk davlatga tegishli bo‘lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo‘ladi. Davlat mulki, asosan ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi:

1) xususiy mol-mulkni milliylashtirib, davlat qo‘liga olish;

2) davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxona va tashkilotlarda - investisiyalarni amalga oshirish.

Davlat mulki haqiqatan ham xalqqa qarashli bo‘lgan, bo‘linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib, takror ishlab chiqarib bo‘lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo‘llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko‘rsatish mumkin.

0‘zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki Respublika mulkidan va ma’muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo‘ladi. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik, hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati' va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag‘lari, oltin zaxirasi, valyuta fondi hamda boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi. Ma’muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag‘lari, munisipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog‘lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to'sqinlik qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib, u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi. Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi.

Jamoa mulki - muayyan maqsad yo‘lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan nioddiy va ma’naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o‘zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxona jamoasi sotib olishi, badal to‘lab korxona qurishi, aksiya chiqarib, ularni sotish kabi yo‘llar orqali paydo bo‘ldi. Jamoa mulkining muhim xususiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma’lum guruh, kishilar egalik qiladi.

Jamoa mulkiga - kooperativlaming, ijara va jamoa korxonalarining, aksionerlar jamiyatlari, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa tashkilotlari hamda diniy tashkilotlaming mulki kiradi. Kooperativlar mulkining asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o'zlashtirishning jamoa-guruh xususiyatidir.

Mulkchilikning bu turida ishlab chiqaruvchilaming ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi muayyan mehnat jamoasi doirasida ro‘y beradi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ularni o‘zlashtirish mulk egasi bo‘lmish mehnat jamoasi doirasida amalga oshiriladi hamda jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarning mushtarakligi vujudga keladi. Kooperativlar qishloq xo‘jaligida, sanoat, qurilish, transportda, savdo, umumiy ovqatlanish, pulli xizmatlar sohasida, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-madaniy hayotning boshqa tarmoqlarida, ilmiy, ilmiy-texnikaviy xizmat ko‘rsatish sohalarida barpo etilishi va faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Kooperativ faoliyat uchta asosiy turga ajraladi: ishlab chiqarish, matlubot va aralash kooperativlar. Ishlab chiqarish kooperativlari o‘z a’zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Ishlab chiqarish va xizmatlaming boshqa sohalaridagi kooperativlaming har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ichida qishloq xo'jaligi kooperativlari alohida ajralib turadi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish kooperativlarining asosiy shakli jamoa va shirkat xo‘jaliklaridir. Masalan, jamoa xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari doirasida kollektiv va oilaviy pudrat hamda yer uchastkalari va asosiy fondlarni ijaraga olish sharoitida daromadlari pirovard natijaga bog‘liq ravishda shakllanadigan xo‘jalik hisobidagi kooperativ jamoalar tuzilmoqda.

Mulkchilikning davlat shakli bilan bir qatorda sohani rivojlantirishning bir qator masalalarini echishda (uy-joy, ijtimoiy infrastrukturaning boshqa obyektlari - sanatoriyalar, dam olish uylari, bolalar bog‘chalari va shu kabilami qurishda) kooperativlaming roli oshib bormoqda.

Mehnatkashlarning shaxsiy mulki asosida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalari, uy qurilish kooperativlari, bog‘- tomorqa shirkatlari va shu kabi kooperativlar rivojlanmoqda. Shahariarda aholining tovarlar va xizmatlaiga bo'lgan talabini yaxshiroq qondirish maqsadida davlat korxonalari hamda tashkilotlari uning tasarrufidan chiqariiib turli xil matlubot kooperasiyalari vujudga kelmoqda. Matlubot kooperasiyasining mulki mulkchilikning davlat va boshqa shakllaridan kelib chiqadi. Mulkchilikning bu shakli faoliyatida uning a’zolari o‘z mehnati bilan ishtirok etishi shart emas. Matlubot kooperasiyalari mustaqil yoki turli korxona, tashkilot va muassasalar qoshida tashkil qilinishi mumkin. Matlubot kooperasiyasi tizimi xizmat ko‘rsatish, shaxsiy tomorqa xo‘jaligida etishtirilgan mahsulotlar va xalq hunarmandchilik buyumlarini shartnoma asosida sotishni ta’minlashda belgilangan huquqlardan foydalanadi.

Shaxsiy mulk - mulk shakllari ichida muhim o‘rin tutadi. Shaxsiy mulk bu fuqarolar mulki bo‘lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Bu mulk shakli asosan shaxsning yoki uning oila a’zolarining mehnati asosida ko‘payadi va rivoj topadi. Fuqaroning shaxsiy mulki asosan ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirokidan, o‘z xo‘jaligini yuritishdan tushgan mehnat daromadlari hisobiga vujudga keladi va ko‘payadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aksiyadan keladigan dividend, bank foizlari, xususiy sohibkorlik daromadi kabi yangi manbaalarga asoslanadi.

Turli shakldagi mulklaming birikib ketishi natijasida aralash mulk paydo bo‘ladi. Bu mulk alohida olingan obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o‘zlashtirilishini bildiradi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mulkchilikning turli xil shakllarini vujudga keltirish asosiy maqsad emas. Bu faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, tashabbuskorlik va sog‘lom raqobatni vujudga keltirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A. Mishkevis. Sbornik zadaniy po ekonomike. V knigax. Kn. 1. Zadachnik po mikroekonomike s resheniyami. - Vita-Press, 2001.
2. Novaya ekonomika: sushnost, dostijeniya, protivorech Materiali studencheskoy nauchno-prakticheskoy konfere MGIMO (U). / Pod. obsh. Red. G.P. Chernikova. - M.: MGI (U) MID Rossii, 2001.
3. Osnovi ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchel /Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispra> M.: Editorial URSS, 2003.
4. R. Pindayk, D. Rubinfeld. Makroekonomika /(per. s angl.). Ekonomika-Delo. 1998.
5. Problemi transformasii i perexoda к reguliruemoy rinocl ekonomike. - M.: TEIS. 1999.
6. Razvitie otrasley sotsialnoy sferi v perexod ekonomike./Pod red. E.N. Shilsova, P.N. Pomanova, Ekonomicheskiy fakultet MGU, TEIS. 2001.
7. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. 0 ‘rmonov. Iqtisc ta’limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002.
8. Dj. D. Saks, F.B. barren. Makroekonomika: globalnie pod: /(per. s angl.). - M.: Delo. 1996.